

TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING MUHIM PSIXOLOGIK VAZIFALARI HAMDA ZAMONAVIY USULLARI

Choriyeva Sojida Oltiboyevna

Buxoro viloyati Olot tumani Maktabgacha

va maktab ta'limi bo'limiga qarashli

13-maktabning amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning psixologik asoslari, kasbiy o'zini anglash jarayoni, kasb tanlashga ta'sir etuvchi omillar hamda zamonaviy kasbga yo'naltirish usullari yoritilgan. Shuningdek, maktab amaliyotchi psixologining kasbiy yo'naltirish jarayonidagi vazifalari va ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kasb-hunarga yo'naltirish, kasbiy o'zini anglash, kasbiy qiziqish, qobiliyat, motivatsiya, kasbiy tanlov, psixologik diagnostika, maktab psixologi, kasbiy rivojlanish, zamonaviy kasblar.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri o'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash va ularning qobiliyat hamda qiziqishlariga mos kasb-hunar egallashlariga ko'maklashishdan iboratdir. Jamiyat taraqqiyoti, mehnat bozori talablari va texnologik rivojlanish sur'atlarining ortib borishi yoshlarning kasbiy yo'nalishini to'g'ri belgilash masalasini yanada dolzarb qilib qo'ymoqda. Kasb-hunarga yo'naltirish – bu o'quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularga kasb tanlashda yordam berishga qaratilgan pedagogik va psixologik faoliyatdir. Mazkur jarayon o'quvchilarning kelajakdagi hayotiy muvaffaqiyatlari va shaxsiy kamolotini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Kasb tanlash shaxs hayotidagi eng mas'uliyatli qarorlardan biri hisoblanadi. To'g'ri tanlangan kasb insonning o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga, mehnatdan qoniqish hosil qilishiga va jamiyatda munosib o'rin egallashiga yordam beradi. Noto'g'ri tanlov esa kasbiy qoniqmaslik, motivatsiyaning pasayishi va shaxsiy rivojlanishdagi muammolarga olib kelishi mumkin. Kasbiy yo'naltirishning muhim psixologik vazifalaridan biri o'quvchilarda kasbiy o'zini anglashni shakllantirishdir. O'quvchi avvalo o'z qiziqishlari, qobiliyatlari, xarakter xususiyatlari va imkoniyatlarini bilishi zarur. Ana shundagina u kelajak kasbi haqida ongli qaror qabul qila oladi.

Yevgeniy Klimov kasblarni inson va mehnat obyektini o'rtasidagi munosabatlarga ko'ra tasniflagan hamda kasb tanlashda shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish muhimligini ta'kidlagan. Uning fikricha, kasbiy muvaffaqiyat inson qobiliyatlari bilan kasb talablari o'rtasidagi moslikka bog'liq.

Maktab amaliyotchi psixologining kasbiy yo'naltirishdagi asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning kasbiy qiziqishlari va moyilliklarini o'rganishdan iborat. Buning uchun psixologik testlar, so'rovnomalar, suhbatlar va kuzatish metodlaridan foydalaniladi. Olingan natijalar asosida o'quvchilarga individual tavsiyalar beriladi. Bugungi kunda kasb-hunarga yo'naltirishning zamonaviy usullari keng qo'llanilmoqda. Jumladan, kasbiy diagnostika, kasblar olami bilan tanishtiruvchi treninglar, kasb egalari bilan uchrashuvlar, ekskursiyalar, mahorat darslari va interaktiv seminarlar o'quvchilarning kasbiy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida onlayn kasbiy testlar, virtual kasb tanlash platformalari va elektron kasbiy maslahat xizmatlari ham keng ommalashmoqda. Bu esa o'quvchilarga zamonaviy kasblar haqida kengroq ma'lumot olish imkonini yaratmoqda. Kasbiy yo'naltirish jarayonida ota-onalarning o'rni ham muhimdir. Ayrim hollarda ota-onalar farzandining qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olmasdan kasb tanlashga ta'sir ko'rsatadilar. Shu sababli psixolog va pedagoglar ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashi, ularga kasbiy yo'naltirishning ahamiyatini tushuntirishi lozim.

Kasb tanlashda o'quvchilarning nafaqat qiziqishlari, balki mehnat bozori ehtiyojlari ham hisobga olinishi kerak. Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalari, muhandislik, tibbiyot, ta'lim, logistika va xizmat ko'rsatish sohalariga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Shu sababli o'quvchilarni istiqbolli kasblar bilan tanishtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Donald Super kasbiy rivojlanish inson hayoti davomida kechadigan uzluksiz jarayon ekanligini ta'kidlagan. Uning nazariyasiga ko'ra, kasb tanlash shaxsning o'zini anglash darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari o'quvchilarda mas'uliyat, mustaqillik, mehnatsevarlik va kelajak uchun maqsad qo'ya olish kabi muhim shaxsiy sifatlarni ham rivojlantiradi. Bu esa ularning nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida ahamiyat qaratish lozim bo'lgan ikkita muhim bosqich bo'lib, ular tayyorlash va tashxislash bosqichidir (1-rasm.). Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ta'lim amaliyotida asosiy e'tibor o'quvchining qiziqish va imkoniyatlarini tashxislashga qaratiladi. Fikrimizcha, o'quvchilarni kasb tanlash jarayoni uchun tashxislashdan oldin uni shu jarayonga ongli ravishda tayyor bo'lishiga tayyorlash lozim. Tayyorlash bosqichi dars va darsdan tashqari jarayonlarda olib borilib, unda o'quvchilar kasbni to'g'ri tanlashning

ahamiyati va zaruratini anglash bilan birga kasb turlari va mehnat bozoriga oid ma'lumotlarga ega bo'lishlari nazarda tutiladi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, umumiy o'rta ta'lim tizimidagi o'quv fanlari mazmunida (texnologiya fanidan tashqari) o'quvchilarni kasb-hunarga oid tushunchalarini shakllantirishga juda kam e'tibor qaratilgan bo'lib, ushbu muammoning ijobiy yechimlarini ishlab chiqish davr talabidir. Umumta'lim fanlari doirasi yoki yo'nalishidagi kasb-hunar turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni shu fan yoki uning o'qituvchisidan ko'ra ko'proq hech kim bilmaydi yoki o'quvchiga yetkaza olmaydi. Zero, rivojlangan davlatlarda maktab ta'limining asosiy yadrosi o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirish bo'lib hisoblanadi.

Kasbni to'g'ri tanlashni ahamiyati va zaruratining o'quvchi tomonidan anglanishi. Bunda umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari tomonidan kasbni to'g'ri tanlashning ahamiyati va zaruratining ongli ravishda idrok qilinishi o'quvchi tomonidan o'z qiziqishi va qobiliyatiga mos kasbning tanlanishi va shu orqali yetuk malakali kadrlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Kasb insonning hayotiy ehtiyojlarini ta'minlaydigan manba bo'lib, u kelgusidagi turmush tarzini belgilab beradi. Kasbni tanlash, ayniqsa, qiziqish va qobiliyatga mos kasbni tanlash atrofdagilar ko'zi o'ngida o'zini ifoda etishni va hayotda o'z o'rnini, qadr-qimmatini topishni xohlagan, farovon hayotga erishishga intilgan har bir shaxs uchun asosiy mayoq bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun o'quvchilar tomonidan uning tanloviga jiddiy yondashish talab etiladi.

Kasbni to'g'ri tanlash inson turmushidagi muhim qadam bo'lib, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Inson tanlagan kasbga zo'r qiziqish bilan qarasa, bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo'lib, o'z kasbiy ko'nikma va malakalarini doimo rivojlantirib borsa, o'z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o'shandagina u kasbi va mehnatidan qoniqish hosil qiladi va tashabbus bilan faoliyat ko'rsatadi.

Mana shu keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, maktab o'quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo'lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo'lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo'lidagi shaxsiy muddaolarini qondirishi lozim. O'quvchining kasb turlari va mehnat bozoriga oid ma'lumotlarga egaligi. Kasb muvaffaqiyatli tanlanishi uchun o'quvchi mavjud kasb-hunar turlari, uning ijtimoiy nufuzi va yashovchanligi, mehnat bozoriga oid ma'lumotlarga ega bo'lishi, ular tizimlashtirilib, olinayotgan axborotlar tahlil qilinishi, boshqa dalillar bilan solishtirilishi, umumlashtirilishi va ular asosida yangi fikrlar shakllantirilishi lozim.

Dunyoda 60 ming (qiyoslash uchun Rossiyada 20 ming) O'zbekistonda 6 mingdan ziyod kasblar mavjud. Kasb sohasida tanlovni amalga oshirmoqchi bo'lgan o'quvchilar bir nechta kasblarni bilishlari asosida o'z tanlovini amalga oshiradilar.

Agar 10 ta kasb haqida tushunchaga ega bo'lsalar, aynan shu 10 ta kasbning birini tanlaydilar. 1000 ta kasbning ta'rifi, tavsifini bilganlarida esa o'zining qiziqishi va qobiliyatiga javob beradigan kasbni tanlash imkoniyati bir necha marta yuqori bo'ladi. Kasb tanlovi inson talablariga to'liq javob berishi uchun kasblar haqida ko'proq bilimga ega bo'lish lozim. Kasb turlari, kasb talab qiladigan aniq faoliyat va amallar, kasbning foydaliligi va uning ijtimoiy nufuzi, ish o'rinlarining mavjudligi kabi parametrlar haqida tushunchalar shakllangan bo'lishi talab etiladi.

Kasblar sohasi dinamik tizim hisoblanib, unda doimiy o'zgarishlar yuz berib turadi. Kasbning yashovchanligi, unga bo'lgan talabning ortishi yoki pasayishi davrlar o'tishi bilan o'zgarib turadi. Shuning uchun o'quvchi regional, global miqyosdagi mehnat bozori haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lishi zarur. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda Navoiy erkin, Jizzax va Angren maxsus industrial zonalarini tashkil etishga kirishildi. Ushbu industrial zonalarini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va rivojlantirishning iqtisodiy tendentsiyalariga muvofiq ushbu hududlarda yangi kasblar paydo bo'lishi yoki ayrim kasblarga talab nihoyatda oshishi mumkin. Ta'kidlab o'tish zarurki, kasblar va ularning ijtimoiy nufuzi haqida yaqin va uzoq kelajakka mo'ljallangan prognozlarini ishlab chiqish va ular bilan o'quvchilarni tanishtirish zarur. Tashxislash bosqichi o'quvchining shaxsiy ehtiyoj, qiziqish, motiv, qobiliyatlarini hamda kasbning o'quvchiga qo'yadigan shartlarini aniqlash va baholashdan iborat bo'lishi lozim.

Shaxsiy ehtiyoj va motivlar asosida biron bir kasbga nisbatan qiziqish kelib chiqadi. Psixologik adabiyotlarda motiv deb insonni ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishga undaydigan, qo'zg'atadigan kuchga, quvvatga aytiladi. Demak, insonning o'z shaxsiy xususiyatlarini ko'rsatish yoki farovon hayotga, obro'e'tiborga erishishi kabi xilma-xil ehtiyojlari kasb tanlash uchun motiv bo'lib xizmat qiladi.

Inson xarakterida o'zini o'zi namoyon qilish xususiyati mavjud. Bu esa o'z navbatida, har bir shaxsning yagonaligini va noyobligini yuzaga chiqaradi. O'z noyobligini ko'rsatish insonning eng katta ehtiyojlaridan biri – o'zini-o'zi namoyon qilishga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Kasb tanlash shaxsiy ish hisoblanganligi bois, ushbu sohada insonning o'z-o'zini nomoyon qilishga bo'lgan ehtiyoji qondirilmaganligi uning o'zida ichki ziddiyatni vujudga keltiradi. Bunday ziddiyatlar o'z navbatida insonda hayotdan qoniqish hosil qilmaslik, loqaydlik, ruhsizlik, hech narsaga qiziqishning bo'lmasligi holatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

O'quvchilarni kasb faoliyatining har xil turlariga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish kasb tanlash jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Qiziqish – insonning alohida insonlar, predmetlar yoki voqea-hodisalarga nisbatan muhim munosabatiga aytiladi. Agar o'quvchida qiziqish bo'lmasa, uni kasbni to'g'ri tanlashga tayyorlash mumkin emas. Hech narsaga qiziqishi yo'q o'quvchi bo'lmaydi. Qiziqishlar va qobiliyatlar soni ham kimdadir ko'proq, kimdadir ozroq bo'ladi. Ularning qaysidir biri

ravshan ko‘rinib turadi, ba’zilarining mavjudligini esa o‘quvchining o‘zi ham bilmaydi.

Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o‘qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Ta’limni hayotiy jarayonlar bilan bog‘lash, uyg‘unlashtirish, o‘quvchilarning individual-tipologik, yosh davrlari xususiyatlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olish ijobiy samara beradi. Chunki har bir kasb-hunar shaxsdan mustahkam irodani, aqliy jiddiylikni, chidam va sabr-toqatni talab qiladi.

Kasbning o‘quvchiga qo‘yadigan shartlarini aniqlash. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarini samarali kasb-hunarga yo‘naltirishda kasbning bo‘lajak mutaxassisga qo‘yadigan talablarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Kasblar o‘z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda insonga o‘z talablarini qo‘yadi. Shaxsning jismoniy kuch va imkoniyatlariga tayangan holda yo‘lga qo‘yiluvchi kasbiy faoliyat mutaxassisdan jismonan baquvvat, mustahkam xarakter, kuchli iroda egasi bo‘lishini talab etadi. Shuningdek, barqaror diqqat, uzoq muddatli e’tibor, umumiy jarayonni birdek nazorat qila olish, harakatlarni o‘ta darajada aniqlik bilan bajarish, yuzaga kelgan vaziyatlarga to‘g‘ri baho bera olish, ushbu vaziyatlardan chiqib keta olish yuzasidan oqilona qaror qabul qilish, shaxsiy xatti-harakat mohiyatini tanqidiy baholash kabi layoqatlarning mavjud bo‘lishi jismoniy faoliyatni olib boruvchi mutaxassisga mazkur jarayonda vaqtni tejash, yutuqlarga erishish, shuningdek, olib borayotgan faoliyatidan moddiy va ma’naviy manfaat ko‘rish imkoniyatini yaratadi.

Keng dunyoqarash va tafakkurga, boy tasavvurga, kuchli xotira, ijodiy layoqat hamda yuksak hissiyotlarga ega bo‘lish bo‘lajak mutaxassis tomonidan aqliy kuch-quvvatni taqozo etuvchi kasb-hunarlar bo‘yicha muvaffaqiyatli faoliyat yurita olish imkonini beradi. Ushbu holatlardan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchi tanlamoqchi bo‘layotgan kasbining unga qo‘yadigan talablaridan boxabar bo‘lishi lozim.

O‘quvchining aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari va qiziqishlarini tekshirish, baholash, qaror qabul qilish qilish. Insonning biror sohada qobiliyati yuqori bo‘lsa, boshqasida past bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarning kasb tanlashdagi muhim vazifalaridan biri – har kim o‘zining qobiliyatini qaysi sohada eng yuqori ekanligini tekshirish va baholashdir. O‘quvchilarning qobiliyati har xil bo‘lishi munosabati bilan har kim o‘zining eng kam vaqt sarf qilib egallashi va eng yuqori samaradorlikka erishishi mumkin bo‘lgan kasbini tanlashi kerak.

O‘quvchi kasb turlari, mehnat bozoriga oid ma’lumotlar va o‘zining shaxsiy ehtiyoj, motiv va qiziqishlari va kasbning o‘quvchiga qo‘yadigan shartlari asosida kasb tanlar ekan o‘zining aqliy qobiliyat va jismoniy imkoniyatlarini tanlangan kasb xususiyatlariga to‘g‘ri kelishini ob’ektiv holatda tekshirib ko‘rishi, baholashi, agar ushbu kasb to‘g‘ri kelmaydigan bo‘lsa, qayta aloqa o‘rnatishi va yakuniy qarorga kelishi lozim. Ushbu jarayon ham inson ehtiyoj va qiziqishlarining o‘zgaruvchanligi ta’sirida dinamik xususiyat kasb etadi. Ushbu tahlillardan ko‘rinib turibdiki, yosh

avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash masalasiga mamlakat kelajak istiqbolining muhim sharti sifatida qaralmoqda. Bu jarayon shaxsni aqliy, axloqiy, mehnatsevarlik, estetik va jismoniy jihatdan kamol toptirish bilan, ya'ni butun ta'lim-tarbiya jarayoni, uning butun kompleksi bilan uzviy birlikda va hamjihatlikda amalga oshiriladi. Oilada bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash odatda maktabgacha bo'lgan yoshdan boshlanadi. Ana shu paytdan e'tiboran bolalarni bo'lg'usi kasbni tanlashga tayyorlash amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini muntazam ravishda o'rganish zarur.

Har bir shaxs har tomonlama kamol topishi lozim, buning uchun maktablarda barcha imkoniyatlar mavjud. Bolalar yaxshi, aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani olishlari va shu bilan birga o'zlarini kasbiy faoliyatga tayyorlashlari mumkin. Bizning fikrimizcha, umumiy o'rta ta'lim tizimining sifat va samaradorligini belgilovchi eng asosiy mezonlardan biri bu o'quvchini maqsadga muvofiq ravishda, ya'ni, jamiyatga eng katta foyda keltiradigan darajada, uning shaxsiy va kasbiy sifatlarini e'tiborga olgan holda kasbiy tafakkur asosida kasbga yo'naltirishdir. Ma'lumki, yetishib chiqayotgan raqobatbardosh mutaxassislar jamiyat taraqqiyotini belgilaydi. Mamlakatimizda olib borilayotgan uzluksiz ta'lim tizimining asosiy maqsadi ham xar tomonlama jismoniy va ma'naviy rivojlangan barkamol avlod va malakali mutaxassislarni yetishtirishdan iboratdir. Bunday mutaxassislarni yetishtirishda xar bir fan va uning mazmunida berilayotgan ma'lumotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, o'qitilayotgan har bir fanning o'quvchiga berayotgan bilim, ko'nikma va malakalarining asosiy negizida shu fan yo'nalishiga oid kasb-hunar turlari, uning jamiyatda tutgan o'rni va o'ziga xos xususiyatlari, shu soha egasidan talab etiladigan shaxsiy va kasbiy sifatlar hamda bu kasb orqali erishish mumkin bo'lgan yutuqlar to'g'risida kerakli ma'lumotlar berilishi lozim. Ya'ni, o'quvchilarni mustaqil ravishda ongli kasb tanlashga yo'naltirish umumiy o'rta ta'lim tizimidagi ta'lim jarayonining asosiy yadrosini tashkil etishi zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish yoshlarning kelajak hayotini muvaffaqiyatli tashkil etishning muhim omillaridan biridir. Kasbiy qiziqish va qobiliyatlarni o'z vaqtida aniqlash, zamonaviy diagnostik usullardan foydalanish hamda o'quvchilarga kasblar olami haqida to'liq ma'lumot berish ongli kasb tanlashga xizmat qiladi. Maktab amaliyotchi psixologi, pedagoglar va ota-onalarning hamkorligi esa ushbu jarayon samaradorligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
2. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2018.
3. Karimova V.M. Kasb psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2020.
4. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent, 2021.

5. Yevgeniy Klimov. Kasbiy yo‘naltirish va kasblar tasnifi nazariyasi.
6. Donald Super. Kasbiy rivojlanish nazariyasi.
7. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent, 2019.
8. Ziyonet

